

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA TAMOYILLARI

Yuldoshova Y.I. – *Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi. O‘zbekiston.*

Annotatsiya: *Dunyo miqyosida korporativ boshqaruvning ilg‘or tamoyillari, raqamlashtirish, ilg‘or menejment uslublari va inson kapitaliga asoslangan yondashuvlar sanoat tarmoqlarida samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlariga aylangan. Jumladan, D. Draper va F. Abernathy o‘z izlanishlarida to‘qimachilik sohasidagi tashkilotlar muvaffaqiyatining kaliti – bu operatsion jarayonlarni optimallashtiruvchi strategik boshqaruv ekanligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *korporativ, optimallashtiruv, strategiya, transformatsiya, ekologik barqarorlik, nazariya, strategik moslashuvchanlik, natija,*

THE NEED AND PRINCIPLES OF IMPROVING THE MANAGEMENT SYSTEM IN TEXTILE ENTERPRISES

Yuldoshova Y.I. – *Independent researcher at Karshi State University. Uzbekistan*

Abstract: *Globally, advanced principles of corporate governance, digitalization, advanced management techniques and approaches based on human capital have become the main directions of increasing efficiency in industrial sectors. In particular, D. Draper and F. Abernathy in their research emphasize that the key to the success of organizations in the textile industry is strategic management that optimizes operational processes.*

Keywords: *corporate, optimization, strategy, transformation, environmental sustainability, theory, strategic flexibility, result.*

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eksportga yo‘naltirilgan, yuqori bandlik darajasini ta’minlovchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda bu soha nafaqat ichki ehtiyojni qondirish, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berish orqali iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida e’tirof etilmoqda. So‘nggi yillarda to‘qimachilik korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq bu o‘zgarishlar nafaqat texnik bazaning yangilanishi, balki boshqaruv mexanizmlarining ham zamonaviy talablarga mos tarzda takomillashtirilishini talab qiladi¹.

Dunyo miqyosida korporativ boshqaruvning ilg'or tamoyillari, raqamlashtirish, ilg'or menejment uslublari va inson kapitaliga asoslangan yondashuvlar sanoat tarmoqlarida samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishlariga aylangan. Jumladan, D. Draper va F. Abernathy o'z izlanishlarida to'qimachilik sohasidagi tashkilotlar muvaffaqiyatining kaliti – bu operatsion jarayonlarni optimallashtiruvchi strategik boshqaruv ekanligini ta'kidlaydilar². Shuningdek, menejment tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat korxonaning ichki faoliyatini, balki butun tarmoqning innovatsion rivojlanish salohiyatini belgilovchi omil sifatida ham qaralmoqda.

Bugungi global raqobat sharoitida to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning sifat, ekologik standartlar, yetkazib berish tezligi kabi omillar bilan aniqlanishi, korxonalarni moslashuvchan, axborotga asoslangan va ilg'or boshqaruv yondashuvlarini qabul qilishga undamoqda. Shu bois, to'qimachilik korxonalarida menejment tizimini takomillashtirish zarurati, asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini chuqur tahlil qilish muhim sanaladi.

To'qimachilik sanoatida menejment tizimlarini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlarning e'tibor markaziga aylandi. Bu, bir tomondan, sanoat tarmog'ining iqtisodiy o'sishdagi strategik rolini anglash bilan, ikkinchi tomondan esa zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarining samaradorlikka ta'sirini chuqur tahlil qilish zarurati bilan bog'liq. Jahon va mahalliy olimlarning tadqiqotlari to'qimachilik korxonalarida menejment tizimini tashkil etish, rejalashtirish, motivatsiya, nazorat va axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy hamda amaliy jihatlarini har tomonlama yoritib bergan.

Xususan, F. Abernathy va J. Dunlop o'zlarining fundamental tadqiqotida shuni ta'kidlaydiki, "to'qimachilik sanoatida menejment tizimini takomillashtirishning asosi bu raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishdir". Ularning fikricha, tezkor ishlab chiqarish, moslashuvchan yetkazib berish zanjiri va bozor signaliga mos rejalashtirish zamonaviy menejmentning asosiy ustunlaridir. Mazkur fikr ayniqsa bugungi global

bozor sharoitida dolzarb bo'lib, O'zbekiston to'qimachilik tarmog'i uchun ham mos keladi. Chunki bu sohada eksportga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligi tezkorlik va moslashuvchanlikka bog'liq.

D. Ruzmetova esa o'z maqolasida to'qimachilik korxonalarida menejment samaradorligini oshirishda inson kapitali va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, rahbarlarning menejment ko'nikmalarini tizimli oshirish hamda xodimlar motivatsiyasini boshqarish samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardir. Mazkur fikr hozirgi kunda dolzarb bo'lib, aynan menejment tizimi kadr salohiyatidan ajralmas element sifatida shakllanishi zarur. Amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'plab korxonalarda inson resurslari boshqaruvi hali ham formal tusda ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida mazkur yondashuvning ahamiyatini yanada oshiradi.

Boshqa bir olimning qayd etishicha, innovatsion menejment yondashuvlariga asoslangan holda to'qimachilik korxonalarida ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etish orqali raqamli boshqaruv muhitini shakllantirish zarur. O'z fikrini davom ettirar ekan, muallif bu nafaqat operatsion darajadagi aniqlikni ta'minlashini, balki strategik qarorlar qabul qilishni ham soddalashtirishini qayd etadi³. Bu yondashuv amaliyotga yaqin va o'zbek to'qimachilik sohasi uchun ayniqsa dolzarb, chunki ma'lumotlar oqimini avtomatlashtirish korxonalarning ichki va tashqi muvofiqligini oshiradi deb xisoblaymiz.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sohaning raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va inson kapitali salohiyatini kuchaytirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratmoqda. G'arb olimlarining global qiymat zanjiri, fast fashion modeli va innovatsion menejmentga oid qarashlari mahalliy tadqiqotchilar yondashuvlari bilan mantiqiy uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar hali ham ko'p jihatdan umumiy tavsiyalar darajasida bo'lib, ularning amaliyotga tatbiq etilishi, tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan mahalliy model va indikatorlar ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik, eksport strategiyalari va loyiha asosida boshqaruv kabi yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj mavjud. Shu bois, bu sohada kompleks, ko'p bosqichli, empirik ma'lumotlarga tayangan ilmiy izlanishlar tizimini kengaytirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

To'qimachilik korxonalarida menejment tizimini takomillashtirish zarurati, avvalo, ichki ishlab chiqarish salohiyati va tashqi muhitdagi tez o'zgaruvchan omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Bunday omillar ichida bozor talabi dinamikasi, texnologik yangilanish sur'atlari hamda global eksport bozorlari bilan integratsiyalashuv darajasi eng muhim omillar qatoriga kiradi. Shunday ekan, menejment tizimini takomillashtirish biror-bir izolyatsiyalangan muammoga yechim emas, balki kompleks transformatsiya zaruriyatidir.

Bozor talabida yuz berayotgan o'zgarishlar to'qimachilik korxonalarining strategik rejalashtirish yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. P. Kotler va K. Keller fikricha, zamonaviy iste'molchilar bozori tobora individual ehtiyojlarga, tezkor yetkazib berish va mahsulot moslashuvchanligiga asoslanmoqda. Ular ta'kidlaganidek, korxonalar ushbu talablar asosida o'z strategiyalarini qayta muvofiqlashtirmasa, bozorda faoliyat olib borish qiyinlashadi. Bu holat to'qimachilik korxonalarida nafaqat marketing strategiyalarini, balki butun boshqaruv tizimini mijozga yo'naltirilgan model asosida qayta tashkil etishni talab qiladi.

O'zbekiston to'qimachilik sohasida eksport hajmlari ortib borayotgan bo'lsada, korxonalar eksport raqobatida sifat, dizayn va innovatsion mahsulotlar bilan emas, balki arzon ishchi kuchi orqali narx ustunligini saqlab qolmoqda⁴. Bu esa uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlamaydi. Shunday sharoitda

menejment tizimi sifat, diversifikatsiya va brendlash kabi yo‘nalishlarni qamrab oluvchi keng ko‘lamli boshqaruv strategiyasiga tayanuvchi shaklda isloh qilinishi lozim. Chunki, bozor talabi, texnologik taraqqiyot va eksport raqobati to‘qimachilik korxonalarini ichki menejment tizimlarini zamonaviylashtirishga majbur qilmoqda. Bu jarayonda nafaqat texnologik vositalar, balki boshqaruv madaniyati, tahliliy fikrlash, strategik rejalashtirish va inson resurslari menejmenti kabi jihatlar uyg‘unlashgan yondashuv asosida ko‘rib chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Draper D., Abernathy F.H. (2007). *The Future of the Textile and Clothing Industry: Global Supply Chains and Innovation*. Harvard University Press.
2. Ruzmetova D.N. (2021). To‘qimachilik sanoatida menejment tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (6), 114–120.
3. Draper D., Abernathy F.H. (2007). *The Future of the Textile and Clothing Industry: Global Supply Chains and Innovation*. Harvard University Press.
4. Nazarov B.K. (2019). *Yengil sanoat tarmoqlarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish yo‘nalishlari* (Iqtisod fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi). Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
5. Abernathy F.H., Dunlop J.T. (2000). *A Stitch in Time: Lean Retailing and the Transformation of Manufacturing – Lessons from the Apparel and Textile Industries*. Oxford University Press.
6. Gereffi G., Frederick S. (2010). *The Global Apparel Value Chain, Trade and the Crisis: Challenges and Opportunities for Developing Countries*. World Bank Policy Research Working Paper No. 5281.
7. Tokatli N. (2008). *Global sourcing: insights from the global clothing industry—the case of Zara, a fast fashion retailer*. *Journal of Economic Geography*, 8(1), 21–38.